



## AFRIKA, YEVROPA VA LOTIN AMERIKASIDAGI XALQARO NIZOLARNI HAL QILISHDA MINTAQAVIY SUDLARNING ROLI

Nabiyev Akram Bekmurodovich

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti magistranti

Akramnabiyev886@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20798246>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 18-iyun 2026 yil

Ma'qullandi: 20-iyun 2026 yil

Nashr qilindi: 22-iyun 2026 yil

### KEYWORDS

*mintaqaviy sudlar, xalqaro nizolar, nizolarni hal qilish mexanizmlari, xalqaro huquq, sud yurisdiksiyasi, mintaqaviy integratsiya.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada mintaqaviy sudlarning xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal etishdagi o'рни tahlil qilinadi. Afrika, Yevropa va Lotin Amerikasi mintaqalarida shakllangan sud organlarining huquqiy tabiati, vakolatlari, ish yuritish mexanizmlari va ularning davlatlar hamda nodavlat subyektlar o'rtasidagi mojarolarni bartaraf etishga qo'shgan hissasi qiyosiy yondashuv asosida yoritilgan. Maqolada Afrika Inson huquqlari sudi, Yevropa Inson huquqlari sudi, Yevropa Adliya sudi, Lotin Amerikasidagi Amerika Inson huquqlari sudi kabi asosiy institutlar faoliyati, ularning qarorlari, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikka ta'siri ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, mintaqaviy sudlar mojarolarni hal qilishning samarali mexanizmlaridan biri bo'lib, ular xalqaro huquqning rivojlanishiga, inson huquqlarining himoyasiga va transmilliy integratsiya jarayonlariga sezilarli hissa qo'shmoqda.*

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab xalqaro tizimning murakkablashuvi, davlatlararo va davlat ichidagi mojarolarning ko'payishi mintaqaviy integratsiya institutlarining rivojlanishiga turtki berdi. Bunda mintaqaviy sudlar xalqaro nizolarni hal etishning muhim huquqiy instrumentiga aylandi. Ular davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda huquqiylik tamoyillarini mustahkamlaydi, inson huquqlarining himoyasini kafolatlaydi va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimi globallashtirish, geosiyosiy raqobat va davlatlar ichki siyosatidagi beqarorliklar tufayli tobora murakkablashib bormoqda. Xalqaro nizolarni barqaror va adolatli hal etish esa nafaqat BMT hamda universal xalqaro institutlar, balki mintaqaviy sud organlarining ham faol ishtirokini talab qilmoqda. Afrika, Yevropa va Lotin Amerikasi kabi mintaqalarda tashkil etilgan mintaqaviy sudlar — Afrika Inson va xalqlar huquqlari sudi, Yevropa Inson huquqlari sudi, Amerika Inson huquqlari sudi va boshqa institutlar — nizolarni tinch yo'l bilan bartaraf etish, inson huquqlarini himoya qilish hamda huquqiy majburiyatlarga rioya etilishini ta'minlashda muhim mexanizm sifatida shakllangan. Mazkur sudlar nafaqat davlatlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni ko'rib chiqadi, balki fuqarolarning huquqlarini xalqaro darajada himoya qilish imkonini yaratadi. Shuningdek, ular mintaqalarda huquqiy madaniyatning shakllanishi, demokratik tamoyillarning

mustahkamlanishi va davlatlarning xalqaro huquq normalariga moslashuvini rag'batlantiradi. Shu bois, Afrika, Yevropa va Lotin Amerikasi sud tizimlarining o'ziga xosligi, ularning nizolarni hal qilishdagi funksiyalari hamda samaradorligini tahlil qilish xalqaro adliya va mintaqaviy xavfsizlikni tushinishda muhim ahamiyatga ega.

Ushbu maqolada uchta yirik mintqa – **Afrika, Yevropa va Lotin Amerikasi** misolida mintaqaviy sudlarning o'rni, ahamiyati, ular hal qilgan nizolar tahlili keltirib o'tiladi.

**Mavzuning dolzarbligi:** Global xavfsizlik tizimi chuqur o'zgarayotgan hozirgi davrda mintaqaviy darajadagi sud organlarining xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal etishdagi ahamiyati keskin ortib bormoqda. Afrika, Yevropa va Lotin Amerikasi mintaqalari so'nggi o'n yilliklarda davlatlararo, ichki siyosiy, etnik, hududiy va inson huquqlariga oid mojarolarning ko'payishi bilan ajralib turadi. Bunday sharoitda **Afrika Inson va xalqlar huquqlari sudi, Yevropa Inson huquqlari sudi, Yevropa adliya sudi, shuningdek Amerika Inson huquqlari sudi** kabi mintaqaviy sudlar barqarorlikni ta'minlashning muhim institutlariga aylandi.

**Mavzuning maqsadi:** Afrika, Yevropa va Lotin Amerikasi mintaqalarida faoliyat yuritayotgan mintaqaviy sudlar xalqaro nizolarni hal qilish jarayonida qanday rol o'ynayotgani, ularning vakolatlari, samaradorligi va xalqaro tinchlik hamda xavfsizlikni ta'minlashdagi ahamiyatini tahlil qilishdan iborat.

**Ma'lumotlarni tahlil qilish va natijalar:** Bu yerda biz 500 ta sud muassasasi bo'yicha olingan ma'lumotlarni tahlil qilish natijalarini taqdim etamiz. 1990-2022 yillar oralig'ida Yevropa, Afrika va Lotin Amerikasi mintaqaviy sudlarining natijalari quyidagicha: Aralash usullar yondashuvi, tahlil tavsiflovchi statistika, regressiya kombinatsiyasidan iborat. Modellar va tarmoq asosidagi vizualizatsiya, ular konvergentsiya tendensiyalarini aniqlashi mumkin va mintaqaviy va xalqaro sudlar o'rtasidagi farqlarni ko'rsatadi. Natijalar ikkalasi bo'yicha tuzilgan.

Mintaqa	Jami holatlar soni (n)	Moslashtirilgan (%)	Qisman Divergent (%)	Parchalangan (%)
Yevropa (ECJ & ECtHR)	180	72.8	17.2	10.0
Afrika (AfCHPR, ECOWAS, EACJ)	160	58.1	23.8	18.1
Lotin Amerikasi (IACtHR)	160	63.7	20.6	15.7
Umumiy / O'rtacha	500	64.9	20.5	14.6

1-rasm: Sud natijalarining mintaqalar bo'yicha taqsimoti (1990-2022)

Umumiy fikr — qarorlarning xalqaro huquq va stavkalar bilan mazmuniy uyg'unlashuvi mintaqalarda taxminan 65 foiz ko'rsatkich bo'lib, bu hamkorlik tendensiyasini ko'rsatadi. Shunga qaramay, ular ancha farq qiladi, ayniqsa Afrikada, u yerda kontekstual va normativ o'zgarishlar (ijtimoiy-iqtisodiy maqomga ega bo'lish huquqida) qisman parchalanishga olib keladi. Yevropada eng yuqori muvofiqlik darajasi mavjud bo'lib, bu Yevropa Ittifoqining yuqori institutsional integratsiyaga mos keladi. Lotin Amerikasida esa bu doimiy holat bo'lib, ba'zan tanlab olinadigan hamkorlik ham bo'lishi mumkin<sup>1</sup>.

**Maqsadga erishish jarayonida quyidagilar o'rganiladi:**

1. Har bir mintaqadagi asosiy mintaqaviy sudlar (masalan, Afrika Inson huquqlari sudi, Yevropa Inson huquqlari sudi, Amerika Inson huquqlari sudi) tuzilishi va vakolatlari.
2. Ularning xalqaro va mintaqaviy nizolarni hal qilishdagi amaliy tajribasi.

<sup>1</sup> [\(PDF\) Xalqaro nizolarni hal qilishda mintaqaviy sudlarning roli: hamkorlik va bo'linish o'rtasida](#)

3. Sudlarning milliy sudlar va xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik mexanizmlari.
4. Mintaqalar o'rtasida taqqoslash orqali sudlarning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash.
5. Mintaqaviy sudlarning global huquqiy tizimdagi o'rni va istiqboldagi roli.

### **Birinchi bob. Mintaqaviy sudlarning nazariy asoslari**

#### **Mintaqaviy sud tushunchasi**

Mintaqaviy sudlar – bu ma'lum geografik hudud yoki siyosiy-iqtisodiy birlashma doirasida tashkil etilgan, nizolarni hal qiluvchi huquqiy organlardir. Ular xalqaro sudlarning (Xalqaro Sud, Xalqaro Jinoyat Sudi) funksiyalarini to'ldiradi.

#### **Mintaqaviy sudlarning asosiy vazifalari:**

- ❖ Inson huquqlarini himoya qilish.
- ❖ Integratsion shartnomalarga rioya etilishini ta'minlash.
- ❖ Davlatlar va davlat-organlari faoliyatini nazorat qilish.
- ❖ Transmilliy mojarolarni huquqiy hal qilish.

#### **Mintaqaviy sudlarning huquq manbalari**

- ✓ Mintaqaviy shartnomalar (masalan, ACHPR – Afrika Xartiyasi).
- ✓ Protokollar.
- ✓ Ichki protsessual reglamentlar.
- ✓ Precedent huquqi (ko'plab mintaqaviy sudlarda mavjud).

### **Ikkinchi bob. Afrika mintaqasida xalqaro nizolarni hal qilishda sudlarning roli**

#### **Afrika Inson huquqlari va xalqlar huquqlari sudi (AfSIPR)**

2004-yilda tashkil etilgan. 2010-yildan faol ish yuritmoqda.

#### **Sudning asosiy vakolatlari**

- Inson huquqlari buzilishi bo'yicha da'volarni ko'rib chiqish.
- Afrika Komissiyasi bilan hamkorlik qilish.
- Davlatlar orasidagi huquqiy masalalarni hal etish.

#### **Amaliy ishlar tahlili**

"Tanzaniya saylov tizimi bo'yicha ish" – sud ilk bor konstitutsiyaviy masalaga aralashdi. Qaror natijasida Tanzaniya milliy qonunlarini o'zgartirishga majbur bo'ldi.

#### **Sudning nizolarni hal etishdagi roli**

- Mojarolarni huquqiy lashtirish orqali zo'ravonlikni kamaytiradi.
- Davlatlarni inson huquqlarini hurmat qilishga majbur qiladi.
- Mintaqaviy integratsiyani kuchaytiradi (AU, ECOWAS bilan hamkorlik).

### **Uchinchi bob. Yevropa mintaqasida mintaqaviy sudlarning roli**

#### **Yevropa Inson huquqlari sudi (YIHS)**

#### **Sudning tarixi**

1959-yilda Yevropa Kengashi doirasida tashkil etilgan. Juda samarali mintaqaviy inson huquqlari instituti hisoblanadi.

#### **Sudning asosiy vakolatlari**

- Inson huquqlariga oid shikoyatlarni ko'rib chiqish.
- Davlatlarni majburiy ravishda qarorlarni ijro etishga undash.
- Yevropa mamlakatlari huquq tizimlarini uyg'unlashtirishga xizmat qilish.

#### **Muhim ishlar tahlili**

"Loizidou vs Turkey (1996)" – Kipr mojarosi bo'yicha eng muhim precedentlardan biri.  
"Georgia vs Russia (2008)" – davlatlararo tortishuvda sudning roli kuchayganini ko'rsatadi.

### **YIHSning mintaqaviy tinchlikka ta'siri**

• Inson huquqlarining kafolatlanganligi mojarolarni kuchaytiruvchi omillarni kamaytiradi<sup>2</sup>.

• Sud qarorlari Yevropada demokratik institutlarni mustahkamlaydi.

### **Yevropa Adliya Sudi (YAS)**

#### **Vazifalari**

• Yevropa Ittifoqi qonunchiligiga izoh berish.  
• A'zo davlatlar o'rtasidagi nizolarni hal qilish.  
• Korporatsiyalar, jismoniy shaxslar va davlat organlari o'rtasidagi nizolarni ko'rib chiqish.

#### **Muhim ishlar**

Costa vs ENEL (1964) – Yevropa huquqining ustuvorligi tamoyili.

Van Gend en Loos (1963) – bevosita ta'sir doktrinasi.

#### **YASning nizolarni hal etishdagi roli**

- Savdo, iqtisodiy va siyosiy integratsiyani kuchaytiradi.
- Iqtisodiy mojarolarni sud orqali nazorat qiladi.
- Mintaqaviy xavfsizlikka bilvosita ta'sir (barqaror iqtisodiy tizim).

**To'rtinchi bob. Lotin Amerikasi mintaqasida xalqaro nizolarni hal qilishda sudlarning o'рни**

#### **Amerika Inson huquqlari sudi (IACHR Court)**

##### **Tarixi**

1979-yilda tashkil etilgan. San-Xose Konvensiyasi asosida ishlaydi.

##### **Asosiy vakolatlari**

- ✓ Inson huquqlari bo'yicha individual shikoyatlar.
- ✓ Davlatlararo da'volar.
- ✓ Tavsiyaviy fikrlar chiqarish.

##### **Muhim ishlar**

“Velásquez Rodríguez vs Honduras (1988)” – majburiy yo'qolishlarga oid pretsedent.  
“Barrios Altos vs Peru (2001)” – amnistiya qonunlarining xalqaro huquqqa zidligi.

##### **Sudning mintaqaviy roli**

- Avtoritar tuzumlardan demokratik boshqaruvga o'tishda huquqiy islohotlar manbai.
- Lotin Amerikasi davlatlarida inson huquqlarining samarali himoyachisi.

#### **Beshinchi bob. Mintaqaviy sudlarning qiyosiy tahlili**

##### **Institutsional farqlar**

- YIHS – eng kuchli ijro tizimiga ega.
- AfSIPR – davlatlar tomonidan tan olinishi cheklangan.
- IACHR – inson huquqlari borasida juda faol sud.

##### **Nizolarni hal etish samaradorligi**

Yevropa mintaqasi eng barqaror mexanizmga ega.

Afrika sudlari hali institutsional mustahkamlanish bosqichida.

<sup>2</sup> [INSON HUQUQLARI BO'YICHA XALQARO-HUQUQIY NORMALARNI SUDLARDA QO'LLASH – тема научной статьи по праву читайте бесплатно текст научно-исследовательской работы в электронной библиотеке КиберЛенинка](#)

Lotin Amerikasi sudlari ko'plab konstitutsiyaviy islohotlarga sabab bo'lmoqda.

#### **Umumiyliklar**

- Inson huquqlarining kafolatlanishi.
- Davlatlarning xalqaro majburiyatlarini kuchaytirish.
- Integratsiyani mustahkamlash.

#### **Xulosa**

Afrika, Yevropa va Lotin Amerikasida faoliyat yuritayotgan mintaqaviy sudlar xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal etishda muhim institutsional o'rin egallaydi. Ularning faoliyati nafaqat davlatlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni bartaraf etishga, balki inson huquqlarini himoya qilish, integratsiya jarayonlarini mustahkamlash hamda mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Yevropa sudlari, xususan Yevropa Inson huquqlari sudi, ancha shakllangan va kuchli huquqiy mexanizmlarga ega bo'lib, nafaqat a'zo davlatlar, balki global huquqiy standartlar uchun ham namuna bo'lib kelmoqda. Afrika Inson va xalqlar huquqlari sudi esa qit'adagi siyosiy va ijtimoiy muammolar sharoitida sud nazoratini kuchaytirish va davlatlarni xalqaro huquqiy majburiyatlarni bajarishga undash orqali muhim o'rin tutmoqda. Lotin Amerikasi mintaqasida esa Inter-Amerika Inson huquqlari sudi inson huquqlarini himoya qilish, demokratik institutlarni mustahkamlash va avtoritar tendensiyalarga qarshi kurashda samarali vosita sifatida shakllangan.

Umuman olganda, mazkur mintaqaviy sudlar xalqaro nizolarni hal etishning zamonaviy va samarali modellari sifatida davlatlarning huquqiy mas'uliyatini oshiradi, sud-huquq mexanizmlari orqali adolatga erishish imkoniyatini kengaytiradi va mintaqalararo tinchlik hamda xavfsizlikni mustahkamlashga bevosita hissa qo'shadi. Bu esa xalqaro huquqning evolyutsiyasi jarayonida mintaqaviy sudlar ahamiyati ortib borayotganini yana bir bor tasdiqlaydi.

Sudlar:

- mojarolarning huquqiy yechimini ta'minlaydi;
- inson huquqlarini himoya qiladi;
- davlatlar o'rtasidagi integratsiyani rivojlantiradi;
- demokratik institutlarning mustahkamlanishiga hissa qo'shadi.

Shuningdek, sudlar o'zlarining pretsedent qarorlari bilan global xalqaro huquqning rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Yevropa eng samarali mintaq bo'lsa-da, Afrika va Lotin Amerikasi sudlari ham o'sish va institutsional takomillashuv jarayonidadir.

#### **Takliflar:**

Mintaqaviy sudlarning samaradorligini oshirish uchun takliflar:

- 1.Sud mandati va vakolatlarini kengaytirish.
- 2.Davlatlarning sud qarorlarini bajarishini nazorat qilishni kuchaytirish.
- 3.Mintaqaviy sudlar o'rtasida integratsiyalashgan hamkorlik mexanizmlarini yaratish.
- 4.Sudlar faoliyatida shaffoflik va ommaviy ahamiyatli materiallarni ochiq qilish.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Shaw, M. International Law. Cambridge University Press.
- 2.Steiner, H., Alston, P. International Human Rights in Context. Oxford University Press.

- 3.Keller, H., Stone Sweet, A. A Europe of Rights: The Impact of the ECHR on National Legal Systems.
- 4.Viljoen, F. International Human Rights Law in Africa.
- 5.Pasqualucci, J. The Practice and Procedure of the Inter-American Court of Human Rights.
- 6.African Court on Human and Peoples' Rights official reports.
- 7.European Court of Human Rights case law database.
- 8.Inter-American Court of Human Rights case files.
- 9.(PDF) Xalqaro nizolarni hal qilishda mintaqaviy sudlarning roli: hamkorlik va bo'linish o'rtasida
- 10.INSON HUQUQLARI BO'YICHA XALQARO-HUQUQIY NORMALARNI SUDLARDA QO'LLASH – тема научной статьи по праву читайте бесплатно текст научно-исследовательской работы в электронной библиотеке КиберЛенинка

